



BAYRAMLARNING VUJUDGA KELISHI VA ULARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Yo'ldoshev Bobur Rustam o'g'li

Jizzax davlat pedagogika universiteti magistranti

Bayramlar qadimdan insonlar hayotining muhim va tarkibiy bo'lagi hisobla-nadi. Bayramlarsiz odamlarning hayotini tasavvur qilish juda qiyin. Ular xalqlar hayotining juda ajoyib va chiroyli taraflarini ko'rsatuvchi oyna vazifasini bajaradi. Bayramlar insoniyat hayotida shu qadar mustahkam o'rinni egallaganki, ularni nishonlamaydigan hech bir inson, oila, jamoa topilmaydi. SHuningdek, har bir millat va elat, xalqning o'z taraqqiyot tarixi jarayonida shakllangan bayramlari mavjud. O'rta Osiyo xalqlari, jumladan, o'zbek xalqining ham eng qadimiy davrlardan shakllana boshlagan, asrlar bo'yini avloddan avlodga o'tib, kamol topib, beba ho merosga aylangan bayramlari ko'p. Bu bayramlarning ma'lum qismi turli sabablar tufayli yo'qotilgan, ayrim bayramlar esa qarama-qarshiliklarni yengi ko'pgina fazilatlardan ajralsada, butunlay yo'qolib ketagan, yana boshqalari esa xalq hayotida mustahkam o'rinni olib, bizning zamonamizgacha yetib kelgan. O'zbek xalqining bayramlari qon qardosh xalqlarning tarixiy-madaniy aloqalari jarayonida shakllangan va rivoj topgan, boshqa xalqlar bayramlariga ta'sir etgan va o'z navbatida qarama-qarshiliklar, to'siqlarni yengib, boshqa xalqlar tajribasi bilan boyib kelgan uzoq tarixga ega.

Arxeologlar, tarixchilar, etnograflar, san'atshunoslar bergan ma'lumotlarga qaraganda, bayramlar eng qadimiy davrlardayoq mavjud bo'lgan va ibtidoiy odamlar hayotida muhim rol o'ynagan. Bayramlarning eng qadimiy davrlarda mavjud bo'lganligi umuman tan olingan. O'zbek xalqiga to'ylar ,bayramlar yarashadi degan gap beziz aytilmagan albatta. O'zbeklarning har bir to'y va

bayramlari alohida tayyorgarliklar va o'zgacha kayfiyatda nishonlanadi. “Bayramlar xalqning shodlik va xursandlik kuni”, -degan edi buyuk sharq mutafakkiri Mahmud Qashg'ariy. Tarixdan ham yaxshi ma'lumki faqat tinch va farovon davlatdagina bayramlar keng miqyosda nishonlangan. Bayramlarning dabdabali yoki xashamdon o'tkazilishi uning iqtisodiy rivojini ko'rsatgan bo'lsa, aksincha kamharj o'tkazilishi bu mamlakatning iqtisodiy yaxshi rivojlanmaganligini yoki madaniyatining yuqoriligi ya'ni isrofga yo'l qo'ymaslik uchun qilinganini bilib olishimiz mumkin. Bayramlar paydo bo'lishi va nishonlanishi jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyotdagi o'sish va rivojlanishni ko'rsatib beradi.

Bayramlar turli sabablarga ko'ra nishonlanishi mumkin. Misol uchun dunyoning ko'plab davlatlarida mustaqillik bayrami turli vaqtarda va sanalarda nishonlanadi. Bunga sabab esa bu mamlakatlarning turli vaqtarda mustaqillikni qo'lga kiritganidir. Bundan tashqari bazi mamlakatlarda mustaqillikni qo'lga kiritgan kun emas mustaqillikni qo'lga kiritishda katta ro'l o'ynagan insonning tug'ilgan yoki vafot etgan kuni ham alohida bayram sifatida nishonlanishi mumkin. Bayramlardan yana bir turi bu ma'lum soha vakillariga bag'ishlab nishonlanadi. Misol uchun harbiylar, shifokorlar o'qituvchilar kabi kasblarga atab, yoki bolalar, qariyalar va onalar va hokazolar. Bayramlarning alohida ajralib turuvchi turi albatta Tabiat bilan bog'liq bayramlar hisoblanad. Masalan yevropada yangi yil bayramining aynan qishda nishonlanishi yoki sharqda xususan Markaziy Osiyo mamlakatlarida yangi yil sifatida nishonlanadigan Navro'z bayramini misol keltirish mumkin. Bayramlarning vujudga kelishi va shakllanishida ularning xilmalligi ham alohida xususiyatlarga egaligi ularning qaysi xalqlar tomonidan nishonlanishiga ham bog'liq hisoblanadi. Masalan bugungi Markaziy Osiyo aholisining 35% ni o'zbeklar tashkil etadi. O'zbekistonda (20 mln 800 ming, 2005-yil), Tojikistonda (1.2 mln. ziyod), Qirg'izistonda (550-600 ming), Qozog'istonda (332 ming), Turkmanistonda (320-330 ming) o'zbeklar yashaydi. Bundan tashqari,

Afg'onistonda (2,5 mln.dan 4 mln.gacha), Rossiya (123 ming, 2002y.), Saudiya Arabistonida (550-600 ming,), Xitoy Xalq Respublikasining Sinszyan - Uyg'ur avtonom rayonida (13,7 mingdan ortiq), qolaversa, Turkiya, Germaniya, AQSh kabi uzoq xorij mamlakatlarda ham o'zbeklar yashaydilar. Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra o'zbeklarning umumiyligi soni 25 mln. dan ortiq (2000 y.).¹ Bugungi kunda esa bu raqamlar 22 yil ichida ancha oshgan. Bundan ko'rinishi turibdiki hozirgi kunda Markaziy Osiyoda aholing etnik tarkibida o'zbeklar ustunlik qiladi. Bu ustunlik esa bu hududlarda bayramlarning nishonlanishida o'zbekona qadriyatlar va ananalar ustunlik qilishini ko'rsatadi. O'zbek bayramlarining shakllanishi esa bevosita o'zbek xalqining shakllanish tarixiga bog'liq hisoblanadi. Biz tarixdan bilamizki o'zbek xalqi shakllanishi miloddan avvalgi ming yilliklarga borib taqaladi va bugungi kungacha juda uzoq shakllanishah va rivojlanish yo'lini bosib o'tgan . Shunday ekan o'zbek bayramlarining paydo bo'lishi va rivijlanishi ham miloddan avvalgi ming yilliklardan boshlangan.

Markaziy Osiyoda xususan O'zbekiston hududida dastlabki bayramlar haqida malumotlar Avestoda ham uchraydi. Masalan hozir ham keng nishonlanadigan Navro'z bayrami bundan necha ming yillar oldin nishonlanganini ko'rishimiz mumkin. Navro'z bayrami tabiat bilan bog'liq bo'lib boshqa bayhramlardan alohida ajralib turadi. Navro'z yil Yangilanadigan, tabiat uyg'onadigan, bobodexxon dalaga yaxshi niyat bilan baraka urug'ini qadaydigan bir davrda nishonlanadigan bayram sifatida yanada ardoqli. Yurtimizdag'i qadimiy qoyalarda aks etgan samoviy timsollar va ajdodlarimizning dehqonchilik madaniyati an'analarini ifodalovchi rasmlar, "Avesto"dagi afsonaviy tasvirlar, Beruniy, Narshaxiy, Mahmud Koshg'ariy, Rabg'uziy, Rabg'uziy kabi buyuk bobolarimiz asarlarida qayd etilgan qimmatli ma'lumotlar Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy kabi ulug' bobokalonlarimizning asarlarida qayd etilgan qimmatli ma'lumotlar Vatanimizda Navro'z bayrami to'rt yarim ming yildan buyon nishonlanib

¹ A.ASHIROV, SH.ATADJANOV- "ETNOLOGIYA" Toshkent. "IQTISOD-MOLIYA" 2008-yil. 96-97-betlar



kelinayotganligini ko'rsatadi. Bugungi kunda ushbu umumxalq bayramining ma'naviy hayotimizdagi o'rni va ta'siri, insonning tabiat bilan hamnafas yashashi, uning qalbida ezgulik, mehr-oqibat, bag'rikenglik kabi ezgu tuyg'ularni uyg'otish, jamiyatimizda o'zaro hurmat va hamjihatlik muhitini yanada mustahkamlash, insonparvarlik ruhini yanada yuksaltirishda muhim omil bo'lmoqda. yosh avlodimizni milliy qadriyat va an'analar ruhida tarbiyalash, uning ahamiyati tobora ortib bormoqda.² Aynan shuning uchun 2014 yilda Navro'z bayramini ommaviy keng miqiyosda O'tkazish uchun birinchi prezidentimiz Islom Karimov tomonidan "2014 yilgi Navro'z umumxalq bayramiga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Bu ham hozirgi kunda qanchalik bayramlarimizga va qadriyatlarimizga bo'lgan etiborni oshib borayotganini ko'rsatadi. Bugungi kunda o'zbek xalqi va Markaziy Osiyoda istiqomat qiluvchi boshqa xalqlar tomonidan ham keng miqiyosda nishonlanuvchi bayramlardan biri bu Hosil bayrami hisoblanadi.

Hosil bayrami nafaqat Markaziy Osiyoda balki dunyoning boshqa hududlarida ham nishonkanadigan bayram hisoblanadi. Hosil bayrami dastlab qadimgi slavyan qabilalari tomonidan nishonlangan. Bu bayram kuzning oxirgi kunlari va qishning boshlanish paytida o'tkazilgan. Bu bayram bahordagi va yozdagagi qattiq mehnatdan so'ng hosilni yig'ib terib olgandan keyin, dalalarda mehnat jarayoni yakunlangan vaqtda, tabiat uyquga ketishdan oldin o'tkazilgan. Keyinchalik bu bayram o'zaro xalqaro madaniy va iqtisodiy munosabatlар natijasida boshqa mamlakatlar va xalqlarga ham keng yoyilgan. O'zbekistonda bu bayram 1972-yilgacha "Paxta bayrami" deb atalgan. Bu bayram hozirgi kunda Xo'jaliklar, tumanlar, viloyatlar miqiyosida o'tkaziladi. Ko'pgina joylarda Hosil bayrami kech kuzda qishloq xo'jaligi ekinlari hosili yig'im-terimi tamomlanishiga qarab nishonlanadi. Bayram kunlari ko'rgazmalar, qishloq xo'jaligi mahsulotlari yarmarkalari uyushtiriladi;

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 24.02.2014 yildagi PQ-2134-son

badiiy va sport o‘yinlari, ot sporti musobaqalari, ommaviy sayillar o‘tkaziladi. Mehnat ilg‘orlariga mukofotlar topshiriladi.

Hosil bayramida qishloq xo‘jaligi xodimlari bilan birga shahar aholisi, keng jamoatchilik ham ishtirok etadi.³ Hosil bayrami o‘tkazilishining aniq bir sanasi yo‘q. bunga sabab esa har yili hosilning yig‘ib terilishi turli vaqtarda yakunlanishi sabab bo‘ladi. Hosilning turli vaqtarda yakunlanishiga sabab esa turli sabablar ya’ni tabiatning har yili har kelishi va tabiat injiqliklari sabab bo‘ladi. Bundan tashqari turli qurg‘oqchiliklar va tabiiy ofatlar, iqlimning issiq kelishi yoki yog‘ingarchilik ko‘payib ketishi, hosilga tasir qiluvchi turli kasalliklar yoki qushlar va hashoratlarnin tasiri ham albatta hosilning pishishi va yig‘ib olinishiga tasir qilishi mumkin. Tarixda turli nomlarda atalgan. Bu bayram qadimda turli vaqtarda nishonlangan bo‘lishiga qaramay hozirgi kunda bir vaqtida o‘kazilishi belgilab quyilgan. Bu bayram hozirgi kundab “Mehrjon bayrami” deb ham ataladi. Mehrjon bayrami bazi shevalarda mehrgon deb ham ataladi. Mehrgon — kuzgi teng kunlikda kuz bayrami sifatida o‘tkazilgan bayram. Miloddan avvalgi 1 ming yillik boshida bunday kuzgi bayramlar turli joylarda, masalan , Eronda va boshqa joylarda Mehrgon , ko‘hna Xorazmda — Chiriruj, Sug‘-dda esa Nimsarda nomi bilan mashhur bo‘lgan.

O‘rta ayerlarda Mehrgon (Mehrjon) muhim bayramlardan biri sifatida nishonlanib kelingan. Ba’zi mamlakatlarda Mehrgon davlatning rasmiy bayrami sifatida o‘tkazilgan. Shu maqsadda davlat xazinasidan mablag‘ ajratilgan, sovg‘alar tarqatilgan, yurtga osh berilgan, sayillar, musobaqalar, tomoshalar uyuştirilgan. Mehrjon dehqonchilik madaniyati bilan bog‘liq bayramdir. Musulmon ulamolari bu bayramni zardushtiylikka daxldor udumlar deb, o‘tkazilishiga qarshilik ko‘rsatishgan. Shu boisdan bo‘lsa kerak, Mehrjon bayramini nishonlash asta-sekin to‘xtagan. Bu bayram o’tgan asrning 90-yillarqdan dastlab Tojikistonda, so‘ng

³ https://uz.wikipedia.org/wiki/O%CA%BBzbekiston_milliy_ensiklopediyasi

O‘zbekistonda qayta nishonlana boshlandi.⁴ Bu bayram bugungi kunda o‘zbekistonda 23-sentabrda nishonlanadi. Bu bayram kuzgi kun va tun tengligini, hosil yig‘ish yakunini, qishga tayyorgarlik ko‘rish kabi hodisalarini aks ettiruvchi bayram. Tarixda 10-15 asr mobaynida Navro‘zdan so‘nggi ikkinchi katta bayram hisoblangan, yil yarmi vazifasini ham o’tagan. O’rta asrlarda turli bayramlarga bo‘linib ketgan.

Hozirgi kunda kuz bayrami, kuzgi kun va tun tengligi, an’anaviy (eski) “yil yarmi” mehr-shafqat tadbirlari sifatida tabiiy saylgohlarda, madaniy bog’, o‘yingohlarda, maydonlarda turli ko‘rgazmalar, ko‘rik-tomoshalar, musobaqalar kabi shakllardan foydalanib o’tkazilmoqda. Bu bayram- barcha qishloq xo’jalik xodimlarining bog’bonu sabzavotkor, g’allakor-u paxtakor, sohibkor-u pillakorlarning yil davomida erishgan g’alabalarini, mehnat mavsumining yakunlanishini tantana qiladigan yirik anjuman hisoblanadi. Avvaliga bog’bonu-sabzavotkorlar, yetishtirgan mahsulotlarning ko‘rigi sifatida, so’ngra ularni g’oyaviy-badiiy elementlar va badiiy dasturlar bilan boyitilishi natijasida o’ziga xos yangi mehnat va tabiat bayramlari vujudga kela boshladi. Sabzavotkor va bog’bonlarning o’ziga xos hosil bayrami vazifasini ham bajaradigan bayramlar odatda avgust oyining oxiri va ko‘proq sentyabr oyining boshlarida, tabiatning eng go’zal bo’lgan vaqtib baxmal mavsumida mevalar, sabzavotlar va boshqa qishloq xo’jalik mahsulotlarini yig‘ib-terib olish tugallanayotgan bir paytda uysushtiriladi. Respublikamizda mazkur bayramlarni o’tkazish borasida o’ziga xos tizim vujudga kelmoqda. Ular avvaliga ko’pgina yirik tuman markazlarida tashkil qilinib, unda tumandagi barcha jamoa xo’jaliklari o’zlarining yetishtirgan maxsulotlari bilan qatnashadi. So’ngra shu tartibda viloyat markazlarida, barcha tumanlarda olingan hosillarning eng yaxshi natijalari targ’ibot etiladi. So’ng maxsus joyda xalq sayllari boshlanadi. Kechki payt tuman madaniyat uyida pilla yetishtirish bo'yicha majburiyatlarni

⁴ [O‘zME](#). Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil



bajargan ilg'orlarni taqdirlashga bag'ishlangan tantanali kecha va konsert uyuştiriladi.⁵ Huddi shunday tabiat bilan bog'liq mavsumiy bayramlardan yana biri bu Qovun sayli hisoblanadi.

O'zbekiston agrar-industrial mamlakat bo'lganligi uchun aholi dehqonchilik bilan shug'ullanadi. Aholi dehqonchilik bilan shug'ullangani uchun u bilan bog'liq bayramlar, sayillar alohida etibor bilan o'tkaziladi. Bu bayramlar yillar davomida an'ana va urf-odatlarga aylanib bormoqda. "Qovun sayli" ham qadimdan nishonlanib kelinayotgan sayllardan biridir. Bu bayram iyul oyida, qovunlar pishgan paytda nishonlanadi. Ushbu saylda dehqonlar qovun, tarvuz, polizi ekinlari va boshqa meva-sabzavot mahsulotlarini namoyish etadi. Sayl bo'lidan bir kun oldin "Ertaga falon vaqtga paykalga qovun sayliga boringlar", - deb taklif qilgan. Bunga oldindan tayyorgarlik ko'rilgan. Saharda kun isib ketmasidan oldin dehqonlar eng sara, band bergan qovunlardan uzib salqin joylarga olib qo'yilgan. Shuningdek, kelgan mehmonlar uchun biror mazali taom ham pishirilgan. Sayilga oqsoqollar, bolalar, barcha taklif etilgan. Sayilda erkaklar askiya aytishib, suhbatlashib o'tirganlar. Taomdan so'ng oqsoqollar dehqonning hosiliga baraka tilab duo qiladilar va hosil yig'imiga ruxsat beradilar. Sayil ishtirokchilari eng shirin qovunlar bilan mehmon qilingan. Bog'dorchilikka ixtisoslashgan hududlarda "olma sayli", "uzum sayli", "anor sayli", "anjir sayli" kabi bayram sayillari o'tkaziladi. Bu kabi sayillarning qadimgi xorazm va so'g'dliklarda ham o'tkazilganligi Beruniy ma'lumotlarida qayd etilgan bo'lib, unga ko'ra qadimda "qovoq bayrami" va uzum bilan bog'liq bayramlar nishonlangan. Ularni ichida yan alohida ajralib turadigani bu "Tut sayli" hisoblanadi. Bu asosan may oyida o'tkazilgan. Xalqimizda tutning pishiqligiga yetgan odam ochdan o'lmaydi degan gap bor. Bu sayl bahorning oxirlarida nishonlanuvchi taqvimiylar marosimlardan biri hisoblanadi. O'rta Osiyo xalqlari qadimdan tutni nihoyatda e'zozlab, qadrlab, uni muqaddas hisoblaganlar hamda tut daraxti o'sgan hovli

⁵ Internet ma'lumoti www.taqvim.uz sayti

fayzli, barakali va omadli sanalgan. Tut daraxti va uning mevasini qadrlashga bag'ishlangan eng katta tadbir - tut sayli deb atalgan va u asosan katta tutzorlari bor joylarda o'tkazilgan. Bu sayilni o'tkazishning barcha joylarda birday amal qilinadigan qat'iy tartiblari ham mavjud emas. Odamlarning o'z bog'laridagi tut mevasini terib yeyish oddiy hol bo'lsa, tevarak-atrofdagi tutzorlarga ommaviy chiqish - "Tut sayli", ya'ni katta bayram hisoblanadi. O'zbekistonda katta xursandchilik va ko'tarinki ruhda o'tkaziladigan bayramlardan yana biri bu "Gul sayli"dir. Gul sayli qadimdan tog'larda, tog' yonbag'irlarida, qir-adirlarda, bog'larda o'tkazilib kelingan. Bu bayram butun dunyoga keng yoyilgan bayramlardan biri hisoblanadi.

Dunyoning ko'plab mamlakatlarida gullarga bag'ishlangan bayramlar juda ko'p nishonlanadi. Masalan Gresiyada sunbul, Yaponiyada xrizantema, Fransiyada marvaridgul, Hindistonda atirgullarga bag'ishlangan maxsus bayramlar mavjud. Bu sayl har yili ko'klamda oila a'zolari va yor-birodarlarning lolazorlarga sayil qilishi, lola terib, xursandchilik qilish maqsadida o'tkaziladigan dam olish uchun o'tkazilgan sayl. U turli joylarda turli hil ataladi va turlicha o'tkaziladi. Misol uchun "qizil gul sayli", "lola sayli", "sumbula sayli", "boychechak", Samarqandda mevali daraxtlar, jumladan behi gullaganda — "behi guli sayli" ("sayil guli behi"), Zarafshon vodiysida "boychechak gulgardoni", Buxoroda gullar ochilib, bulbullar sayragan vaqtida — "Gulgardoni bulbulxon" ("Bulbul qo'shig'i") singari nomlar bilan mashhur bo'lgan.

Hozirda bu bayram gul va chechaklar avji ochilgan chog'da istirohat bog'larida tashkil etiladigan eng yaxshi gul namunalari ko'rigi sifatida ham o'tkaziladi. Bunday ko'riklarni respublikamizning Toshkent, Namangan va boshqa shaharlarida har yil o'tkazish an'anaga aylangan. Bu bayramda davlat gulchilik



xo‘jaliklarida yetishtirilgan hamda xususiy gulchilar yetishtirgan gul navlari namunalari namoyish qilinadi. G‘oliblar esdalik sovg‘alari bilan taqdirlanadi.⁶